Materiallar to’plami · Conference Proceedings

“Iqtisodiy, ijtimoiy va madaniy huquqlarni ta’minlash: global chaqiriqlar va milliy yechimlar(Fuqarolarning iqtisodiy, ijtimoiy va madaniy huquqlari: transmilliy muammolar va ularni hal etish mexanizmlari)”

01 October – 14 November 2026

UDK 34

IQTISODIY, IJTIMOIY VA MADANIY HUQUQLARNI TA’MINLASH: GLOBAL CHAQIRIQLAR VA MILLIY YECHIMLAR

IJTIMOIY VA MADANIY HUQUQLARNI RO‘YOBGA CHIQARISHDA HUQUQIY ONG VA HUQUQIY MADANIYAT: HUQUQIY BOQIMANDALIKNI BARTARAF ETISH HAMDA YANGI O‘ZBEKISTON TAJRIBASI

ABDUHAKIM ABDULAZIZOVICH SO‘FIYEV*

Farg’ona davlat unversiteti, Huquqshunoslik fakulteti Falsafa fanlari bo‘yicha falsafa doktori

✉ sufiyevabduhakim474@gmail.com

ANNOTATSIYA

Maqolada iqtisodiy, ijtimoiy va madaniy huquqlarning 60 yillik xalqaro tajribasi va Yangi O‘zbekistondagi konstitutsiyaviy islohotlar qiyosiy tahlil qilingan. Huquqiy ong va huquqiy madaniyatni yuksaltirish, ijtimoiy boqimandalikni bartaraf etish hamda Ijtimoiy himoya milliy agentligi faoliyatining huquqiy mexanizmlari ilmiy asoslab berilgan.

Kalit so‘zlar

Ijtimoiy-madaniy huquqlar, huquqiy ong, huquqiy madaniyat, huquqiy boqimandalik, ijtimoiy davlat, subyektiv huquq.

KIRISH

Insonning ijtimoiy va madaniy huquqlari davlatchilik tarixida uzoq vaqt mobaynida ikkinchi darajali yo‘nalish, ya’ni davlatning moliyaviy-iqtisodiy imkoniyati hamda ma’muriy ixtiyoriga bog‘liq bo‘lgan dasturiy maqsadlar sifatida talqin qilib kelindi. Birlashgan Millatlar Tashkiloti Bosh Assambleyasi tomonidan 1966-yil 16-dekabrda qabul qilingan hamda O‘zbekiston Respublikasi Oliy Majlisining 1995-yil 31-avgustdagi 126-I-son qarori bilan ratifikatsiya qilingan [1]Iqtisodiy, “Ijtimoiy va madaniy huquqlar to‘g‘risidagi xalqaro pakt” ning oltmish yillik xalqaro amaliyoti ijtimoiy va madaniy huquqlar qonunchilikda rasmiy e’lon qilinishi bilangina amalda ro‘yobga chiqmasligini isbotladi. Mazkur huquqlarning deklarativ qoidalardan amaliy huquqiy munosabatlarga va barqaror huquqiy tartibotga aylanishi, birinchi navbatda, konstitutsiyaviy normalarning to‘g‘ridan-to‘g‘ri amal qilish mexanizmiga hamda jamiyatdagi huquqiy ong va huquqiy madaniyatning yetuklik darajasiga bevosita bog‘liqdir.

Avvalgi davr huquqni qo‘llash amaliyotining tanqidiy tahlili shuni ko‘rsatadiki, ijtimoiy va madaniy huquqlarni ta’minlashdagi asosiy muammo faqatgina moddiy resurslar cheklanganligida emas, balki konstitutsiyaviy normalar bilan ularning amaliy ijrosi o‘rtasidagi uzilishda namoyon bo‘lgan. Konstitutsiyada mustahkamlangan ta’lim olish, malakali tibbiy xizmatdan foydalanish, ilmiy va badiiy ijod erkinligi hamda ijtimoiy ta’minot huquqlari uzoq yillar davomida qonunchilikda belgilangan tartibda amalga oshirilishiga doir havolaki qoidalar vositasida vazirlik va idoralarning qonunosti hujjatlariga bog‘lab qo‘yildi. Oqibatda huquqiy munosabat ishtirokchilari ongida ikki tomonlama salbiy holat vujudga kelib, ayrim mansabdor shaxslar faoliyatida qo-

[1]O‘zbekiston Respublikasi Oliy Majlisining 1995-yil 31-avgustdagi “11966-yil 16-dekabrdagi Iqtisodiy, ijtimoiy va madaniy huquqlar to‘g‘risidagi xalqaro paktga qo‘shilish haqida”gi 126-I-son Qarori

nun ustuvorligi o‘rnini ma’muriy-buyruqbozlik va idoraviy yondashuv egallagan bo‘lsa, fuqarolarning muayyan qismida davlatning ijtimoiy-madaniy kafolatlarini o‘z mehnat faoliyati, tashabbuskorligi va huquqiy burchlariga bog‘lamasdan, tayyor moddiy ta’minot sifatida kutishdan iborat huquqiy boqimandalik kayfiyati shakllandi.

2023-yil 30-aprelda umumxalq referendumi asosida qabul qilingan yangi tahrirdagi O‘zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasi mazkur eskirgan huquqni qo‘llash amaliyotiga barham berib, milliy huquqiy tizimning yangi konseptual asoslarini yaratdi. Asosiy Qonunning 1-moddasida O‘zbekistonning suveren, demokratik, huquqiy va ijtimoiy davlat ekanligi konstitutsiyaviy tuzumning o‘zgarmas poydevori sifatida belgilandi. Yuridik fan nuqtayi nazaridan, 1-moddada huquqiy davlat va ijtimoiy davlat prinsiplarining o‘zaro uyg‘unlikda mustahkamlanishi chuqur nazariy-amaliy ahamiyatga ega. Zero, ijtimoiy davlat ijtimoiy ta’minot mablag‘larini manzilsiz taqsimlash orqali jamiyatda boqimandalikni rag‘batlantiradigan tizim emas, balki har bir shaxsning munosib hayot kechirishi, ta’lim olishi, kasb egallashi va madaniy boyliklardan bahramand bo‘lishi uchun qonun asosida teng huquqiy imkoniyat yaratadigan davlatdir.

Ushbu konstitutsiyaviy maqsadning rasmiyatchilik bo‘lib qolmasligini ta’minlovchi asosiy konstitutsiyaviy-huquqiy mexanizm Konstitutsiyaning 15-moddasida o‘z ifodasini topdi. Unga muvofiq, O‘zbekiston Respublikasida Konstitutsiya va qonunlarning ustunligi so‘zsiz tan olinishi bilan birga, Konstitutsiya mamlakatning butun hududida oliy yuridik kuchga ega ekanligi, to‘g‘ridan-to‘g‘ri amal qilishi va yagona huquqiy makonning asosini tashkil etishi qat’iy mustahkamlandi. Shu bilan birga, 15-moddaning uchinchi va to‘rtinchi qismlarida O‘zbekiston Respublikasining xalqaro shartnomalari xalqaro huquqning umume’tirof etilgan prinsip va normalari bilan bir qatorda milliy huquqiy tizimning tarkibiy qismi ekanligi hamda milliy qonunlarda boshqacha qoidalar belgilangan taqdirda xalqaro shartnoma qoidalari ustuvor qo‘llanilishi belgilab qo‘yildi. Mazkur imperativ norma 1966-yilgi Iqtisodiy, ijtimoiy va madaniy huquqlar to‘g‘risidagi xalqaro pakt qoidalarini milliy sud va ma’muriy amaliyotda bevosita qo‘llash imkonini berdi hamda mansabdor shaxslarning idoraviy yo‘riqnomalarni asos qilib ko‘rsatgan holda fuqarolarning konstitutsiyaviy huquqlarini cheklash amaliyotiga huquqiy jihatdan chek qo‘ydi.

Ijtimoiy-madaniy huquqlarning aniq yuridik mezonlarga ega bo‘lishi hamda huquqiy boqimandalikning oldini olish o‘rtasidagi muvozanat Konstitutsiyaning 46-moddasida yaqqol namoyon bo‘ladi[2]. Ushbu moddaga binoan, har kim qariganda, mehnat qobiliyatini yo‘qotganda, ishsizlikda, shuningdek boquvchisini yo‘qotganda va qonunda nazarda tutilgan boshqa hollarda ijtimoiy ta’minot huquqiga ega bo‘lib, qonunda belgilangan pensiyalar, nafaqalar va boshqa turdagi ijtimoiy yordamning miqdorlari rasman belgilangan eng kam iste’mol xarajatlaridan oz bo‘lishi mumkin emas. Mazkur konstitutsiyaviy norma davlat va mansabdor shaxslarning huquqiy ongi nuqtayi nazaridan ijtimoiy himoya byudjetdan ortib qolgan mablag‘ hisobiga ko‘rsatiladigan ixtiyoriy moddiy ko‘mak emas, balki eng kam iste’mol xarajatlari miqdoridan pastga tushirilishi qonunan taqiqlangan qat’iy yuridik majburiyat ekanligini anglatadi. Fuqarolarning huquqiy ongi va huquqiy madaniyati nuqtayi nazaridan esa 46-modda ijtimoiy ta’minot huquqining vujudga kelishini qarilik, mehnat qobiliyatini yo‘qotish, ishsizlik va boquvchisini yo‘qotish kabi aniq yuridik faktlar bilan bog‘laydi. Binobarin, mehnatga layoqatli shaxsga nisbatan davlatning vazifasi uni doimiy nafaqa oluvchi passiv subyekt sifatida qoldirish emas, balki sifatli ta’lim, kasbiy tayyorgarlik va munosib mehnat sharoitlarini yaratish orqali o‘zini o‘zi mustaqil ta’minlaydigan faol huquq subyektiga aylantirishdan iboratdir.

Shu nuqtayi nazardan, Yangi O‘zbekistonda ijtimoiy va madaniy huquqlarni ro‘yobga chiqarish jarayonini faqat qonunchilikdagi o‘zgarishlar majmui sifatida emas, balki subyektiv huquq va yuridik burch birligini anglaydigan zamonaviy huquqiy ong hamda huquqiy madaniyatning shakllanishi sifatida tadqiq etish bugungi eng dolzarb vazifasidir.

Ijtimoiy va madaniy huquqlarni ro‘yobga chiqarishda huquqiy ong hamda huquqiy madaniyatning o‘rnini tadqiq etish, avvalo, xalqaro-huquqiy hujjatlar, milliy huquqshunoslik maktabi vakillarining nazariy qarashlari hamda O‘zbekiston Respublikasida qabul qilingan dasturiy qonunchilik hujjatlarining kompleks tahliliga tayanadi.

Milliy huquqshunos olimlar X.T. Odilqoriyev, Sh.A. Saydullayev va boshqalarning fundamental tadqiqotlarida huquqiy ong va huquqiy madaniyat qonun ustuvorligini ta’minlash hamda qonuniylikni mus-

[2]O‘zbekiston Respublikasining Konstitutsiyasi. – Toshkent: “O‘zbekiston”, 2023. – 80 b

tahkamlashning asosiy sharti sifatida baholanadi. Biroq uzoq yillar davomida nazariy adabiyotlarda huquqiy ong masalasi ko‘proq fuqarolarning qonunlarni bilishi va huquqbuzarliklarning oldini olish doirasidagina o‘rganilib, uning ijtimoiy va madaniy huquqlarni amalda ro‘yobga chiqarishdagi, xususan, jamiyatda huquqiy boqimandalik va huquqiy passivlikni bartaraf etishdagi bevosita ta’siri yetarli darajada ochib berilmagan edi[3],[4].

Mazkur ilmiy va amaliy bo‘shliqni to‘ldirishda hamda sohadagi mavjud muammolarga aniq huquqiy baho berishda O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2019-yil 9-yanvardagi “Jamiyatda huquqiy ong va huquqiy madaniyatni yuksaltirish tizimini tubdan takomillashtirish to‘g‘risida” gi PF-5618-sonli Farmoni va u bilan tasdiqlangan “Jamiyatda huquqiy madaniyatni yuksaltirish konsepsiyasi” asosiy metodologik manba bo‘lib xizmat qiladi. Ushbu normativ-huquqiy hujjatning tahlili avvalgi davrda insonning ijtimoiy va madaniy huquqlarini to‘laqonli ro‘yobga chiqarishga to‘sqinlik qilib kelgan to‘rtta tizimli muammoni ilmiy jihatdan aniqlashtirish imkonini beradi[5].

Birinchidan, huquqiy ta’lim va tarbiya jarayonida uzilish hamda biryoqlamalik mavjud bo‘lgan. Farmonda asosli ravishda qayd etilganidek, uzoq yillar davomida huquqiy madaniyatni yuksaltirish masalasiga faqat huquqni muhofaza qiluvchi organlar va ayrim davlat organlarining vazifasi sifatida qarab kelinib, bu jarayonda oila, mahalla va fuqarolik jamiyatining boshqa institutlari ishtiroki yetarlicha ta’minlanmagan. Aholining huquqiy bilimlarini oshirishga doir vazifalar umumiy va mavhum tusda belgilangani hamda ularni amalga oshirishning aniq ta’sirchan mexanizmi bo‘lmagani sababli ta’lim va madaniyat sohasidagi huquqiy targ‘ibot ishlari kutilgan natijani bermagan.

Ikkinchidan, shaxsiy manfaatlar va jamiyat manfaatlari o‘rtasidagi huquqiy muvozanatga yetarli e’tibor qaratilmagan. Hujjatda huquqiy ong va huquqiy madaniyatni yuksaltirishda shaxsiy manfaatlar hamda jamiyat manfaatlari o‘rtasidagi muvozanatni saqlash g‘oyalarini aholi ongiga singdirish ishlari yetarli olib borilmagani qonun ustuvorligini ta’minlashga jiddiy salbiy ta’sir ko‘rsatayotgani alohida ko‘rsatib o‘tilgan. Huquq nazariyasi nuqtayi nazaridan, ijtimoiy sohadagi boqimandalik kayfiyati aynan shu muvozanatning izdan chiqishi oqibatidir. Bunda shaxs davlatdan ijtimoiy ta’minot, imtiyoz va bepul madaniy-ma’rifiy xizmatlardan iborat shaxsiy manfaatni talab qilgani holda, jamiyat taraqqiyotiga hissa qo‘shish, halol mehnat qilish va qonunlarda belgilangan yuridik burchlarni bajarish mas’uliyatini ikkinchi darajaga tushirib qo‘yadi.

Uchinchidan, fuqarolarning o‘z huquqlarini sud orqali himoya qilishdagi passivligi mansabdor shaxslar tomonidan huquqlarning kamsitilishiga sharoit yaratgan. Farmonning muqaddimasida avvalgi davr huquqni qo‘llash amaliyotidagi jiddiy tizimli kamchilik sifatida aholining huquqiy bilimlari yetarli emasligi, shuningdek, davlat organlarining qonunga xilof qarorlari ustidan sudga shikoyat qilish imkoniyatidan deyarli foydalanmasligi mansabdor shaxslar tomonidan fuqarolarning huquqlari va qonuniy manfaatlari kamsitilishi holatlarining vujudga kelishiga sabab bo‘layotgani qayd etilgan. Bu holat ijtimoiy va madaniy huquqlarning buzilishida faqatgina ma’muriy buyruqbozlik emas, balki fuqarolarning o‘z buzilgan huquqini sud tartibida tiklashga bo‘lgan ishonchsizligi va huquqiy savodxonligi pastligi ham bevosita omil bo‘lganini isbotlaydi.

To‘rtinchidan, globallashuv va ilmiy-texnik taraqqiyot sharoitida yoshlarda huquqiy immunitetni shakllantirish ishlari zamon talablaridan ortda qolgan. Yoshlarning huquqiy tarbiyasiga salbiy ta’sir ko‘rsatuvchi omillarga va zararli axborotlarga nisbatan mustahkam huquqiy immunitetni shakllantirish, qonunlarga va odob-axloq qoidalariga hurmat, milliy qadriyatlarga sadoqat, huquqbuzarliklarga murosasizlik hissini uyg‘otish ishlariga kompleks yondashilmagani, shuningdek, huquqiy targ‘ibotning innovatsion va axborot-kommunikatsiya texnologiyalariga asoslangan usullaridan yetarli foydalanilmagani madaniy hamda axborot huquqlarini ro‘yobga chiqarishda jiddiy to‘siq bo‘lib kelgan.

PF-5618-son Farmonning normativ-huquqiy tahlili ko‘rsatadiki, Yangi O‘zbekistonda ushbu kamchiliklarni bartaraf etish uchun «Jamiyatda qonunlarga hurmat ruhini qaror toptirish — demokratik huquqiy davlat qurishning garovidir!» hamda «Yuksak huquqiy madaniyat — mamlakat taraqqiyoti kafolati» degan konseptual g‘oyalar asosida mutlaqo yangi institutsional mexanizm yaratildi[6]. Xususan:

[3]Odilqoriyev X.T. Davlat va huquq nazariyasi. – Toshkent: O‘zbekiston Respublikasi IIV Akademiyasi, 2009.

[4]Saydullayev Sh. A. Davlat va huquq nazariyasi: darslik. – Toshkent: TDYU, 2021.

[5]O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2019-yil 9-yanvardagi “Jamiyatda huquqiy ong va huquqiy madaniyatni yuksaltirish tizimini tubdan takomillashtirish to‘g‘risida”gi PF-5618-son Farmoni

[6]O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2019-yil 9-yanvardagi “Jamiyatda huquqiy ong va huquqiy madaniyatni yuksaltirish tizi-

Jamiyatda huquqiy ong va huquqiy madaniyatni yuksaltirish «shaxs — oila — mahalla — ta’lim muassasasi — tashkilot — jamiyat» prinsipi bo‘yicha tizimli va uzviy tashkil etilishi belgilandi;

Ta’lim olish va madaniy rivojlanish huquqini huquqiy tarbiya bilan bog‘lash maqsadida maktabgacha ta’lim muassasalarida «Bola huquqlari va majburiyatlari» mavzusidagi ko‘rgazmali mashg‘ulotlarni tizimli joriy etish, umumta’lim maktablari, akademik litseylar va oliy ta’lim muassasalarida o‘quv dasturlarini tubdan qayta ko‘rib chiqib, yosh avlod ongiga huquq va burch, halollik va poklik tushunchalarini, korrupsiyaning jamiyat ravnaqi uchun o‘ta salbiy illat ekanligini bolalikdan singdirib borish hamda giyohvandlik va huquqbuzarliklarning oldini olish bo‘yicha maxsus dasturlarni amalga oshirish (1, 10, 11-bandlar) majburiyati yuklatildi[7];

Davlat xizmatchilarining huquqiy ongi va madaniyatini oshirish, ularda korrupsiya va boshqa huquqbuzarliklarga murosasizlik munosabatini shakllantirish hamda vazirlik va idoralar rahbarlarining Konsepsiyada nazarda tutilgan tadbirlarning o‘z vaqtida, to‘liq va sifatli amalga oshirilishi uchun shaxsan javobgar ekanligi qat’iy mustahkamlandi;

O‘zbekiston Respublikasi Adliya vazirligi sohada muvofiqlashtiruvchi davlat organi etib belgilandi. Aholining huquqiy axborotdan va madaniy-ma’rifiy manbalardan erkin foydalanish huquqini ta’minlash uchun qonun hujjatlari ma’lumotlari milliy bazasi, yuridik lug‘at, huquqiy adabiyotlar elektron maydonchasi va onlayn forumlarni o‘z ichiga olgan O‘zbekiston Respublikasining milliy huquqiy internet portali hamda aholiga bepul maslahat berish portalini qamrab olgan Advice.uz huquqiy axborot tizimi yaratildi, shuningdek, «Huquqiy targ‘ibot ishlari a’lochisi» ko‘krak nishoni ta’sis etildi;

Davlat organlari va tashkilotlarining aholi huquqiy savodxonligini oshirish bo‘yicha faoliyati ustidan Oliy Majlis palatalarining ta’sirchan parlament nazorati hamda fuqarolik jamiyati institutlari bilan ijtimoiy sheriklik mexanizmlari yo‘lga qo‘yildi.

Tadqiqot davomida olingan muhim ilmiy-amaliy natijalardan biri shuki, fuqarolarning huquqiy ongidagi boqimandalik kayfiyati hamda mansabdor shaxslar faoliyatidagi rasmiyatchilik ko‘p jihatdan ijtimoiy va madaniy himoya tizimining institutsional jihatdan tarqoq bo‘lganligi bilan bog‘liq edi. Uzoq yillar mobaynida aholining ijtimoiy himoyasi, nogironligi bo‘lgan shaxslarning ta’lim olishi, kasb egallashi va reabilitatsiyasi masalalari o‘nga yaqin vazirlik va idoralar, jumladan bandlik, sog‘liqni saqlash, maktabgacha va maktab ta’limi, oliy ta’lim, moliya, ichki ishlar organlari hamda mahalliy hokimliklar o‘rtasida bo‘lib tashlangan bo‘lib, sohada yagona davlat siyosati va muvofiqlashtiruvchi mexanizm mavjud emas edi. Bunday tarqoqlik sharoitida davlat tomonidan ajratiladigan mablag‘lar, xususan oxirgi yillarda ijtimoiy dasturlarni moliyalashtirish xarajatlari yalpi ichki mahsulotga nisbatan ikki baravarga, kam ta’minlangan nafaqa oluvchi oilalar qamrovi esa besh barobarga oshgan bo‘lsa-da, asosan passiv moliyaviy to‘lov bo‘lgan nafaqa tarqatish bilangina cheklanib, shaxsni mustaqil mehnat va madaniy-ma’rifiy hayotga qaytarish vazifasini to‘liq bajara olmadi.

Yangi tahrirdagi Konstitutsiyada e’lon qilingan ijtimoiy davlat tamoyili hamda mehnatga layoqatsiz va yolg‘iz keksalar, nogironligi bo‘lgan shaxslar va aholining ijtimoiy jihatdan ehtiyojmand boshqa toifalari huquqlari davlat himoyasida ekanligiga oid konstitutsiyaviy normani amaliyotga tatbiq etish maqsadida qabul qilingan O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2023-yil 1-iyundagi Aholiga sifatli ijtimoiy xizmat va yordam ko‘rsatish hamda uning samarali nazorat tizimini yo‘lga qo‘yish bo‘yicha kompleks chora-tadbirlar to‘g‘risidagi PF-82-son Farmoni milliy huquqiy tartibotda tub institutsional islohotni boshlab berdi[8].

Mazkur Farmonning 2 va 6-bandlariga muvofiq, O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti huzurida aholini ijtimoiy himoya qilish va ijtimoiy xizmatlar ko‘rsatish sohasidagi yagona davlat siyosatini ishlab chiqish va amalga oshirish bo‘yicha vakolatli davlat organi sifatida Ijtimoiy himoya milliy agentligi, uning hududiy boshqarmalari hamda tuman va shaharlarda Inson ijtimoiy xizmatlar markazlari tashkil etildi. Yuridik fan nuqtayi nazaridan, Agentlikning huquqiy maqomidagi eng muhim jihat uning o‘z faoliyatini boshqa davlat organlari va tashkilotlari hamda ularning mansabdor shaxslaridan mustaqil ravishda amalga oshirishi va Prezident Administratsiyasi tuzilmasida Prezidentning ijtimoiy himoya masalalari bo‘yicha maslahatchisi hamda Agentlik

mini tubdan takomillashtirish to‘g‘risida”gi PF-5618-son Farmoni

[7]O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2019-yil 9-yanvardagi “Jamiyatda huquqiy ong va huquqiy madaniyatni yuksaltirish tizimini tubdan takomillashtirish to‘g‘risida”gi PF-5618-son Farmoni

[8]O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2023-yil 1-iyundagi “Aholiga sifatli ijtimoiy xizmat va yordam ko‘rsatish hamda uning samarali nazorat tizimini yo‘lga qo‘yish bo‘yicha kompleks chora-tadbirlar to‘g‘risida”gi PF-82-son Farmoni

direktori lavozimining joriy etilganligidir. Bu norma avvalgi davrda mahalliy ijro etuvchi hokimiyat organlari va turli idoralar tomonidan ijtimoiy himoya masalalariga ikkinchi darajali vazifa sifatida qarash amaliyotiga huquqiy jihatdan chek qo‘ydi.

Farmonning 4-bandi va 10-bandining d kichik bandi asosida boshqa vazirlik va idoralarning takrorlovchi funksiyalari bekor qilinib, turli tuzilmalarda tarqoq bo‘lgan muassasalar, shu jumladan Tibbiy-ijtimoiy ekspertiza inspeksiyasi, reabilitatsiya va protezlash markazlari, Muruvvat va Saxovat internat-uylari, bolalar uylari va mehribonlik uylari, voyaga yetmaganlar bilan ishlash sektorlari, alohida ta’lim ehtiyojlari bo‘lgan bolalar uchun ixtisoslashtirilgan maktab va internatlar, imkoniyatlari cheklangan shaxslar uchun ixtisoslashtirilgan kasb-hunar maktablari hamda Ijtimoiy sug‘urta jamg‘armasi bosqichma-bosqich yagona Agentlik tuzilmasiga birlashtirildi. Natijada shaxsning tug‘ilishidan boshlab ta’lim olishi, kasb egallashi, mehnat qilishi va keksalik chog‘ida himoyalanishigacha bo‘lgan barcha ijtimoiy-madaniy huquqlari yagona huquqiy makonda jamlandi.

Huquqiy boqimandalikni bartaraf etishning zamonaviy yuridik mexanizmlari nafaqa oluvchi passiv subyektdan ijtimoiylashgan faol huquq subyektiga o‘tishni ta’minlaydi. PF-82-son Farmonning kontseptual tahlili Yangi O‘zbekistonda huquqiy boqimandalikni bartaraf etish ma’muriy taqiqlar orqali emas, balki to‘rtta aniq huquqiy mexanizm orqali amalga oshirilayotganini ko‘rsatadi:

Birinchidan, ijtimoiy yordamning maqsadi moddiy ta’minlash bilangina cheklanib qolmasdan, balki ijtimoiylashuvni ta’minlash etib belgilandi. Farmonning 1-bandida davlat tomonidan aholini manzilli himoya qilishning asosiy yo‘nalishi sifatida ijtimoiy himoya tizimi samaradorligi va manzilliligini oshirish orqali aholining ko‘makka muhtoj qatlami ijtimoiylashuvini ta’minlash qat’iy mustahkamlandi. Huquq nazariyasida ijtimoiylashuv shaxsning jamiyat hayotida, mehnat va madaniy munosabatlarda to‘laqonli ishtirok etish qobiliyatini tiklashni anglatadi. Endilikda davlat shaxsning faqat tibbiy nuqsoni va mehnatga yaroqsizligini qayd etmaydi, balki uning saqlanib qolgan intellektual, kasbiy va jismoniy funksionalligini baholab, uni ta’lim va mehnat faoliyatiga yo‘naltiradi.

Ikkinchidan, keys-menejment va ijtimoiy pasport institutlari amaliyotga joriy etildi. Farmonning 5-bandiga asosan, Inson ijtimoiy xizmatlar markazlarida mahalla darajasida ishlaydigan professional ijtimoiy xodimlar guruhlari tashkil etildi. Ularning vazifasi ariza yig‘ish bilan cheklanmay, har bir xonadon ahvolini o‘rganib, oilalarning iqtisodiy-ijtimoiy holati va ehtiyojlarini aks ettiruvchi ijtimoiy pasportlarni shakllantirish hamda keys-menejment usulida individual dastur asosida ishlashdir. Bu usul huquqiy boqimandalikka chek qo‘yadi, chunki oilaga manzilsiz nafaqa berib qo‘ya qolmasdan, uning og‘ir ahvolga tushib qolish sababi, jumladan ishsizlik, malaka yetishmasligi, huquqiy yordamga muhtojlik yoki tibbiy-psixologik muammo aniqlanadi va mas’ul vazirliklarga yuboriladigan buyurtmalar orqali muammo ildizi bilan bartaraf etiladi.

Uchinchidan, ijtimoiy va madaniy-ta’lim soxasidagi huquqlarning uzviy integratsiyasi ta’minlandi. Shaxsni boqimandalikdan chiqarishning eng ishonchli yo‘li uning ta’lim olish va o‘z qobiliyatini ro‘yobga chiqarish huquqini kafolatlashdir. Shu maqsadda Agentlikka ijtimoiy himoyaga muhtoj qatlam vakillari uchun davlat oliy ta’lim muassasalariga davlat granti asosida imtiyozli tarzda o‘qishga qabul qilish parametrlarini belgilash yuzasidan Davlat komissiyasiga bevosita taklif kiritish huquqi berildi. Shuningdek, imkoniyatlari cheklangan shaxslar uchun ixtisoslashtirilgan kasb-hunar maktablari hamda Paralimpiyachilarning matonat maktabi Agentlik tizimiga o‘tkazilib, ehtiyojmand qatlamning ilm-fan, kasb-hunar va sport-madaniy hayotda o‘z o‘rnini topishi uchun to‘g‘ridan-to‘g‘ri huquqiy sharoit yaratildi.

To‘rtinchidan, mehnatga layoqatli aholini ijtimoiy sug‘urta mexanizmlari bilan qamrab olish kengaytirildi. Farmonning tegishli bandlarida aholining ijtimoiy sug‘urta mexanizmlari bilan qamrab olinishini kengaytirish ustuvor vazifa sifatida belgilandi. Mehnatga layoqatli fuqaro davlat byudjetidan tekin nafaqa kutish o‘rniga, rasmiy mehnat faoliyati va ijtimoiy sug‘urta tizimida ishtirok etish orqali o‘zining kelajakdagi ijtimoiy kafolatlarini o‘zi yaratishi lozimligini anglaydi.

PF-82-son Farmon tahlili ko‘rsatadiki, ijtimoiy va madaniy huquqlar sohasida qonuniylikni ta’minlash uchun ham davlat xizmatchilarining kasbiy huquqiy ongi, ham fuqarolarning huquqiy xabardorligi yangi bosqichga olib chiqildi.

Davlat organlari va mansabdor shaxslar intizomini mustahkamlovchi ma’muriy-huquqiy mexanizmlar

shakllantirildi. Avvalgi davrda ijtimoiy dasturlar ijrosiga mas’uliyatsizlik bilan qaragan mansabdor shaxslarga nisbatan bevosita ta’sir choralari yetishmas edi. Farmonning 7 va 8-bandlari bilan Agentlik huzurida Ijtimoiy inspeksiya tashkil etildi hamda Agentlikka o‘z vakolatlari doirasida umummajburiy bo‘lgan normativ-huquqiy hujjatlar qabul qilish, aholini ijtimoiy himoya qilish dasturlari talablarini bajarmagan vakolatli davlat organlariga taqdimnomalar kiritish, shuningdek ma’muriy javobgarlikni keltirib chiqaradigan holatlar yuzasidan ma’muriy huquqbuzarliklar to‘g‘risida bayonnomalar tuzish vakolati berildi. Bu vakolatlar ijtimoiy-madaniy huquqlarni ta’minlashni ixtiyoriy-tashkiliy vazifadan qat’iy yuridik javobgarlik bilan qo‘riqlanadigan huquqiy majburiyatga aylantirdi[9].

Sohaga ilmiy yondashuv va professional kadrlarni tayyorlash yo‘lga qo‘yildi. Huquqiy va ijtimoiy madaniyatni yuksaltirish maqsadida Agentlik huzurida Ijtimoiy siyosat laboratoriyasi hamda Ijtimoiy himoya tizimi xodimlarining malakasini oshirish markazi tashkil etildi. Shu bilan birga, Oliy ta’lim, fan va innovatsiyalar vazirligi bilan hamkorlikda oliy ta’lim muassasalarining bakalavriat va magistratura bosqichlarida ijtimoiy xodimlarni o‘qitish dasturlarini xalqaro ekspertlar ishtirokida qayta ko‘rib chiqish belgilandi.

Fuqarolarning huquqiy axborot olish huquqini proaktiv ta’minlash mexanizmi joriy etildi. Avvalgi davrda fuqarolar o‘zlariga qonunchilikda belgilangan ijtimoiy xizmat va imtiyozlardan bexabar qolganliklari sababli o‘z huquqlaridan to‘liq foydalana olmas edilar. Farmonning tegishli normalariga binoan, Agentlik davlat organlarining ma’lumotlar bazasidan real vaqt rejimida foydalangan holda, aholini ijtimoiy xizmatlar va yordam dasturlari haqida fuqaroning murojaat qilishini kutib o‘tirmasdan ularning mobil aloqa vositalariga ma’lumot yuborish orqali xabardor qilish, ya’ni proaktiv xizmat ko‘rsatish amaliyotini yo‘lga qo‘ydi. Bu esa fuqaro va davlat o‘rtasidagi byurokratik to‘siqlarni bartaraf etib, aholining o‘z huquqlaridan amalda foydalanish madaniyatini oshirdi.

XULOSA

Xulosa qilib aytganda iqtisodiy, ijtimoiy va madaniy huquqlar to‘g‘risidagi xalqaro paktning oltmish yillik xalqaro amaliyoti hamda Yangi O‘zbekistonda amalga oshirilayotgan konstitutsiyaviy-huquqiy islohotlarning qiyosiy tahlili asosida quyidagi ilmiy-nazariy xulosalar va amaliy takliflarni ilgari surish mumkin:

Konstitutsiyaviy normalarning deklarativ holatdan bevosita amal qiluvchi huquqiy tartibotga aylanishi.

Avvalgi davr huquqni qo‘llash amaliyotida shaxsning ijtimoiy va madaniy huquqlari asosan havolaki normalar hamda vazirlik va idoralarning qonunosti hujjatlari orqali tartibga solingani sababli, fuqarolar va mansabdor shaxslarning huquqiy ongida ushbu huquqlarga ikkinchi darajali vazifa sifatida qarash shakllangan edi. Yangi tahrirdagi O‘zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasining 1 va 15-moddalari asosida ijtimoiy davlat prinsipining konstitutsiyaviy tuzum negizi sifatida belgilanishi, Konstitutsiyaning oliy yuridik kuchga egaligi va to‘g‘ridan-to‘g‘ri amal qilishi, shuningdek, xalqaro shartnomalar qoidalarining milliy qonunlardan ustuvorligi ijtimoiy-madaniy huquqlarni ma’muriy ixtiyoriylikdan chiqarib, sud orqali himoya qilinadigan qat’iy subyektiv huquqlar darajasiga olib chiqdi.

Subyektiv huquq va yuridik burch birligi – huquqiy boqimandalikni bartaraf etishning nazariy-metodologik asosi.

Yuridik fan nuqtayi nazaridan, Konstitutsiyaning 1-moddasida huquqiy davlat va ijtimoiy davlat tushunchalarining uyg‘unlikda mustahkamlangani ijtimoiy himoya tizimi jamiyatda huquqiy boqimandalikni yuzaga keltirmasligi lozimligini anglatadi. O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining PF-5618-son Farmonida belgilangan shaxsiy manfaatlar hamda jamiyat manfaatlari o‘rtasidagi muvozanatni saqlash tamoyili va Konstitutsiyaning 46-moddasi tahlili shuni ko‘rsatadiki:

mehnatga layoqatsiz, nogironligi bo‘lgan, boquvchisini yo‘qotgan va obyektiv sabablarga ko‘ra ehtiyojmand fuqarolar uchun pensiya va nafaqalarning rasman belgilangan eng kam iste’mol xarajatlaridan oz bo‘lmasligi davlatning so‘zsiz bajariladigan yuridik majburiyatidir;

mehnatga layoqatli shaxslar uchun esa davlatning vazifasi ularni doimiy nafaqa oluvchi passiv subyekt sifatida saqlash emas, balki uzluksiz ta’lim, kasbiy tayyorgarlik va ijtimoiy sug‘urta mexanizmlari orqali o‘zini

[9]O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2023-yil 1-iyundagi “Aholiga sifatli ijtimoiy xizmat va yordam ko‘rsatish hamda uning samarali nazorat tizimini yo‘lga qo‘yish bo‘yicha kompleks chora-tadbirlar to‘g‘risida”gi PF-82-son Farmoni

va oilasini mustaqil ta’minlaydigan faol huquq subyektiga aylantirishdir.

Ijtimoiy-madaniy huquqlarni ta’minlashning yagona institutsional va ma’muriy-yurisdiksiyaviy mexanizmi.

O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining PF-82-son Farmoni asosida boshqa davlat organlari va ularning mansabdor shaxslaridan mustaqil faoliyat yurituvchi Ijtimoiy himoya milliy agentligi hamda shaharlarda Inson ijtimoiy xizmatlar markazlarining tashkil etilishi sohadagi ko‘p yillik idoraviy tarqoqlik va takrorlovchi funksiyalarga barham berdi. Mahalla darajasida oilalarning ijtimoiy pasportini shakllantirish, keys-menejment usulida individual ishlash, nogironligi bo‘lgan shaxslarning funksionalligini baholash orqali ularni oliy va kasbiy ta’limga hamda mehnatga yo‘naltirish huquqiy boqimandalikni bartaraf etuvchi amaliy mexanizmdir. Shu bilan birga, Agentlikka umummajburiy normativ-huquqiy hujjatlar qabul qilish, qonunbuzilish holatlari bo‘yicha taqdimnomalar kiritish va ma’muriy huquqbuzarliklar to‘g‘risida bayonnomalar tuzish vakolatining berilgani mansabdor shaxslarning kasbiy huquqiy ongi va ijro intizomini mustahkamlashda javobgarlikning muqarrarligi prinsipini ta’minladi[10].

Qonunchilik va huquqni qo‘llash amaliyotini yanada takomillashtirish bo‘yicha takliflar:

Birinchidan, sohaviy qonunchilikni kodifikatsiyalash, ijtimoiy ta’minot, ijtimoiy xizmatlar va ijtimoiy sug‘urta sohasidagi tarqoq qonun va qonunosti hujjatlarini yagona tizimga solish, xususan mehnatga layoqatli ehtiyojmand fuqarolarga davlat tomonidan ko‘rsatiladigan moddiy ko‘makni ularning kasb o‘rganish va rasmiy bandlik shartlarini bajarishi bilan bog‘lovchi ijtimoiy shartnoma institutining huquqiy asoslarini qat’iy belgilash maqsadida O‘zbekiston Respublikasining Ijtimoiy kodeksini qabul qilish maqsadga muvofiqdir.

Ikkinchidan, uzluksiz huquqiy ta’lim dasturlarini yangilash, ya’ni PF-5618-son Farmonda belgilangan uzluksiz tizim doirasida ta’lim muassasalaridagi huquqiy fanlar dasturlarida ijtimoiy-madaniy huquqlarni faqat imtiyozlar ro‘yxati sifatida o‘qitishdan voz kechib, subyektiv huquq, yuridik burch va ijtimoiy mas’uliyat birligini amaliy kazuslar orqali singdirish metodikasini joriy etish zarur.

Uchinchidan, fuqarolarning sud orqali himoyalanish imkoniyatlarini raqamlashtirish. Fuqarolarning davlat organlari va mansabdor shaxslarning ijtimoiy hamda madaniy huquqlarni cheklovchi qonunga xilof qarorlari ustidan ma’muriy sudlarga shikoyat qilish faolligini oshirish maqsadida Inson ijtimoiy xizmatlar markazlari axborot bazasini Advice.uz huquqiy axborot tizimi va oliy yuridik ta’lim muassasalarining yuridik klinikalari bilan integratsiya qilish, shu orqali ehtiyojmand fuqarolarga ma’muriy sudlarga murojaat kiritishda bepul protsessual hujjatlar loyihasini tayyorlab berish tartibini yo‘lga qo‘yish lozim.

Xulosa qilib aytganda, Yangi O‘zbekistonda ijtimoiy va madaniy huquqlarning ro‘yobga chiqarilishi davlatning bir tomonlama ixtiyoriy ko‘magi emas, balki konstitutsiyaviy qonuniylikka, mansabdor shaxslarning qat’iy yuridik javobgarligiga hamda fuqarolarning boqimandalikdan xoli, yuksak huquqiy ongi va huquqiy madaniyatiga tayanadigan barqaror huquqiy tartibotdir.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO‘YXATI

1. O‘zbekiston Respublikasining Konstitutsiyasi yangi tahriri.2023
2. Iqtisodiy, ijtimoiy va madaniy huquqlar to‘g‘risidagi xalqaro pakt. – BMT Bosh Assambleyasi, 1966-yil 16-dekabr. (O‘zbekiston Respublikasi Oliy Majlisining 1995-yil 31-avgustdagi 126-I-son qarori bilan ratifikatsiya qilingan).
3. O‘zbekiston Respublikasining Prezidentining 2019-yil 9-yanvardagi «Jamiyatda huquqiy ong va huquqiy madaniyatni yuksaltirish tizimini tubdan takomillashtirish to‘g‘risida»gi PF-5618-son Farmoni.
4. O‘zbekiston Respublikasining Prezidentining 2023-yil 1-iyundagi «Aholiga sifatli ijtimoiy xizmat va yordam ko‘rsatish hamda uning samarali nazorat tizimini yo‘lga qo‘yish bo‘yicha kompleks chora-tadbirlar to‘g‘risida»gi PF-82-son Farmoni.
5. Odilqoriyev X.T. Davlat va huquq nazariyasi. – Toshkent: O‘zbekiston Respublikasi IIV Akademiyasi, 2009.
6. Saydullayev Sh. A. Davlat va huquq nazariyasi: darslik. – Toshkent: TDYU, 2021.

[10]O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2023-yil 1-iyundagi “Aholiga sifatli ijtimoiy xizmat va yordam ko‘rsatish hamda uning samarali nazorat tizimini yo‘lga qo‘yish bo‘yicha kompleks chora-tadbirlar to‘g‘risida”gi PF-82-son Farmoni

7. O‘zbekiston Respublikasi Qonunchilik ma’lumotlari milliy bazasi (Lex.uz)